



NORASMIY TARJIMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

**PAXTANI QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONALARI
UCHUN SANITARIYA QOIDALARI VA ME’YORLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0248-08- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA
NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi**

B.I. Niyazmatov

4-fevral 2008 yil

**PAXTANI QAYTA ISHLASH SANOATI KORXONALARI
UCHUN SANITARIYA QOIDALARI VA ME’YORLARI**

**O‘zbekiston Respublikasining
0248-08- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008

Sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga rioya qilmaslik qonun bo'yicha ta'qib qilinadi.

Mazkur gigiyenik normativlarga mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar hamda jismoniy shaxslar rioya etishi shart.

Rasmiy nashr

Qayta nashr etish taqiqlanadi

ISHLAB CHIQUVCHI MUASSASALAR:

Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti (O‘zR SSV SGvaKKITI)

TUZUVCHILAR:

t.f.n., k.i.x. - Ibragimova G.Z.

t.f.n., k.i.x. - Shamansurova X.Sh.

t.f.d. - Iskandarova G.T.

t.f.n., k.i.x. - Daniyarova S.S.

k.i.x. - Apollonova G.M.

k.i.x. - Taziyeva L.I.

Kirish

Ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o'tkazishda Sanitariya qoidalari va me'yorlari sanitariya vrachi uchun asosiy me'yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Paxtani qayta ishlash sanoati O'zbekistondagi barcha sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi, biroq so'nggi vaqtgacha respublikamizda va MDH mamlakatlarida paxtani qayta ishlash sanoati uchun Sanitariya qoidalari va me'yorlari mavjud emas edi. SanQvaM Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, loyihalovchi va foydalanuvchi tashkilotlar faoliyati uchun zarurdir.

Mazkur hujjat ilk bor ishlab chiqildi. SanQvaMni ishlab chiqishda mehnatni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga oid standartlar, me'yoriy-texnik hujjatlar talablari inobatga olindi.

1. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur qoidalar talablarining bajarilishi tarmoq idoralari, konsernlar, davlat, kooperativ, aksiyadorlik va mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa korxonalar uchun; korxonalarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiquvchi hamda tasdiqlovchi loyiha, konstruktorlik, texnologiya institutlari va tashkilotlari uchun; paxtani qayta ishlash zavodlarining uskunalarini ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar uchun majburiydir.

1.2 Sanitariya-gigiyena talablarini tartibga solishga doir amaldagi tarmoq xavfsizlik qoidalari, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar mazkur Sanitariya qoidalariga muvofiqlashtirilishi kerak.

1.3 "Sanitariya qoidalari" talablarining bajarilishi uchun javobgarlik korxona ma'muriyati zimmasiga yuklanadi.

2. Me'yoriy havolalar

GOST 12.2.009-76. Yuk ortish-tushirish ishlari. Umumiy xavfsizlik talablari.

GOST. SSBT. Ish hududi havosiga qo'yiladigan umumiy sanitariya-gigiyena talablari. 12.1.005-88.

QMQ 02.01.08-96. Shovqindan himoya qilish. Loyihalash me'yorlari.

QMQ 02.04.05-97. Isitish, shamollatish va havoni mo'tadillash.

QMQ 02.09.04-98. Korxonalarning ma'muriy va maishiy binolari.

QMQ 02.01.05-98. Tabiiy va sun'iy yoritish.

GOST 31169-2003 (ISO 11202:1995). Mashinalar shovqini. Ish joyida va boshqa nazorat nuqtalarida tovush bosimi nurlanish darajalarini o'lchash. O'rnatish joyida taxminiy o'lchov usuli.

GOST 31172-2003 (ISO 11202:1995). Mashinalar shovqini. Ish joyida va boshqa nazorat nuqtalarida tovush bosimi nurlanish darajalarini o'lchash. Tovushni

qaytaruvchi yuzadagi deyarli erkin tovush maydonida qo'llaniladigan texnikaviy usul.

SanQvaM № 0015-94. Gigiyenik me'yorlar. O'zR hududidagi aholi punktlari atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning REKlar (ruxsat etilgan eng ko'p konsentratsiya) ro'yxati. 1, 2-ilovalar.

SanQvaM № 0046-95. Gigiyenik me'yorlar. Ish hududi havosidagi zararli moddalarning REKlar ro'yxati.

SanQvaM № 0122-01. Ish joylaridagi umumiy va lokal tebranishning sanitariya me'yorlari.

SanQvaM № 0120-01. Ish joylaridagi shovqinning ruxsat etilgan darajalariga oid sanitariya me'yorlari.

SanQvaM № 0141-03. Mehnat jarayonining zararli va xavfli darajasi, og'irligi va keskinligi bo'yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi.

SanQvaM № 0150-04. O'zbekiston xalq xo'jaligida pestitsidlarni qo'llash, saqlash va tashish jarayonidagi sanitariya qoidalari va gigiyena me'yorlari.

SanQvaM № 0167-04. Ishlab chiqarish muhitining biologik omillari. Ish hududi havosidagi produsent-mikroorganizmlar, bakterial preparatlar va ularning tarkibiy qismlarining ruxsat etilgan eng ko'p konsentratsiyalari (REK).

SanQvaM № 0179-04. O'zbekiston Respublikasi hududidagi aholi punktlari atmosfera havosidagi ifloslantiruvchi moddalarning REKlariga oid gigiyenik me'yorlar.

SanQvaM 0208-06. Texnologik jarayonlarni tashkil etishning sanitariya qoidalari va ishlab chiqarish uskunalariga qo'yiladigan gigiyena talablari.

3. Qisqartmalar

VKCh — vaqtinchalik kelishilgan chiqindilar.

QMQ — Qurilish me'yorlari va qoidalari.

RECh — Ruxsat etilgan chegaraviy chiqindilar.

REK — Ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiya.

SMZ — Sanitariya-muhofaza zonasi.

SM — Sanitariya me'yorlari.

SanQvaM — Sanitariya qoidalari va me'yorlari.

QMQ — Qurilish me'yorlari va qoidalari.

MK — maxsus kiyim.

MP — maxsus poyabzal.

4. Sanoat korxonalari, binolar, inshootlarni joylashtirish va hududlarni saqlashga doir talablar

4.1 Paxta tozalash korxonalarini qurish uchun maydon tanlash, ularning bino va inshootlarini joylashtirish QMQning “Sanoat korxonalarining bosh rejalari, loyihalash me’yorlari” bobi, SM 245-71 “Sanoat korxonalarini loyihalash sanitariya me’yorlari” talablariga, shuningdek, mazkur qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

4.2 Yangi qurilayotgan paxta tozalash sanoati korxonalari loyihalarida yer uchastkasining o’lchamlari kelajakda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish imkoniyatini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

4.3 Sanitariya-muhofaza zonasining o’lchami 300 metrga (III sinf) teng bo’lishi kerak.

4.4 Turar joy imoratlari chegarasigacha bo’lgan sanitariya-muhofaza zonasining o’lchamini bevosita havo muhitini ifloslantiruvchi manbalardan boshlab hisoblash lozim.

4.5 Paxta tozalash zavodlarini turar joy imoratlariga nisbatan ustun yo’nalishdagi shamollar esadigan tomonga joylashtirmaslik kerak.

4.6 Sanitariya-himoya zonasi yoki uning biron bir qismi korxonaning zaxira hududi sifatida qaralishi hamda sanoat maydonchasini kengaytirish uchun foydalanilishi mumkin emas.

4.7 Sanitariya-himoya zonasi uchun ajratilgan hududdan texnik qishloq xo’jaligi ekinlarini yetishtirish uchun foydalanishga yo’l qo’yiladi.

4.8 Paxta tozalash zavodining mavjud hududida korxonani kengaytirishni nazarda tutuvchi yangi sexlar qurilayotganda loyihada belgilangan qurilish foizi buzilmasligi kerak.

4.9 Bino va inshootlarni joylashtirishda texnologik aloqa, sanitariya-gigiyena va yong’in xavfsizligi talablari, shuningdek, yuk aylanmasi hamda foydalaniladigan transport turlarini inobatga olgan holda hududni funksional zonalarga ajratish nazarda tutilishi lozim.

4.10 Paxta tozalash zavodining hududi quyidagi zonalarga bo’linishi kerak: zavodoldi (ma’muriy), xomashyo, ishlab chiqarish, omborxona, paxta xomashyosi, chigit va boshqalar bilan ishlash vositalarini mexanizatsiyalashni ta’minlash zonasi. Ularni joylashtirishda “shamollar guli” hisobga olinishi kerak.

4.11 Yordamchi bino va inshootlarni ishlab chiqarish binolariga nisbatan shamol esadigan tomonga joylashtirish lozim.

4.12 Ochiq maydonchalarga atmosfera havosini ifloslantirishga qodir bo’lgan alohida texnologik qurilmalar, moslamalar, agregatlar va uskunalarni joylashtirishda belgilangan tartibda kelishilgan texnologik loyihalashtirish me’yorlari talablari,

shuningdek, ularga qo'yiladigan gigiyenik talablar ham hisobga olinishi kerak.

4.13 Bino va inshootlar shunday joylashtirilishi kerakki, ventilyatsiya va havoni mo'tadillashtirish tizimlari tomonidan tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan havo olinadigan joylarda zararli moddalarning miqdori ishchi hududi havosi uchun yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyalarning 30 foizidan oshmasligi lozim.

4.14 Deraza o'rni orqali yoritiladigan bino va inshootlar o'zaro qarama-qarshi turgan bino va inshootlar karnizining yuqori qismigacha bo'lgan eng katta balandlikka teng sanitariya masofasiga ega bo'lishi kerak.

4.15 Paxta xomashyosi g'aramlari va urug'larni dorilash vositalarini saqlash omborlari ishlab chiqarish hamda yordamchi bino va xonalarining eng yaqin ochiladigan teshiklarigacha kamida 50 metr masofada joylashtirilishi lozim.

4.16 Paxta tozalash zavodi hududidagi doimiy yo'llarning yuzasi zamonaviy yig'ishtirish texnikasidan foydalangan holda paxta changidan muntazam tozalab turilishi kerak. Yilning issiq va quruq vaqtlarida yo'llarga muntazam suv sepib turilishi lozim.

5. Ishlab chiqarish binolari va inshootlariga qo'yiladigan talablar

5.1 Ishlab chiqarish binolari va xonalarini QMQning "Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish binolari. Loyihalash me'yorlari" tegishli boblarini hamda SM 245-71 "Sanoat korxonalarini loyihalashning sanitariya me'yorlari"ni hisobga olgan holda loyihalashtirish kerak.

5.2 Hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlar texnologik jarayonning uzluksizligini, ishlarni mexanizatsiyalashni, shuningdek, zararli moddalar ko'p ajraladigan xonalardan kam ajraladigan xonalarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tarqalishini oldini olishni ta'minlashi kerak.

5.3 Binolar va inshootlar tom qoplamasining profili hamda binolarning kengligi zararli moddalarning tabiiy yo'l bilan (aeratsiya) yoki havo tortuvchi-chiqaruvchi ventilyatsiya orqali samarali chiqarib yuborilishini ta'minlashi lozim.

5.4 Ishlab chiqarish binolaridagi eshik o'rnilarida issiqlikni saqlovchi tambur yoki havo-issiqlik pardalari bo'lishi kerak.

5.5 Ishlab chiqarish binolarini loyihalashda chekish uchun maxsus joylar, shuningdek, qo'l yuvish uchun sovuq va issiq suv ta'minoti nazarda tutilishi lozim.

5.6 "Paxta tozalash zavodlari va paxta tayyorlash maskanlari uchun xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari" talablariga muvofiq, binolar va inshootlarning tomlari har hafta tolali changdan tozalanishi kerak. Shu munosabat bilan, tomni mexanik shikastlanishdan himoya qilish uchun asfalt-qum qorishmali pardaxt qatlami qilish nazarda tutilishi lozim.

5.7 Ishlab chiqarishning portlash va yong'in xavfi bo'yicha toifalari (V, D, G) hamda bino va inshootlarning olovbardoshligiga muvofiq, yuk ko'taruvchi konstruksiyalar uchun tegishli materiallarni qo'llash, talab etilgan sondagi evakuatsiya yo'laklarini tashkil etish, yong'inga qarshi devorlar, to'siqlar va eshiklar o'rnatish zarur.

5.8 Yong'in xavfi mavjud bo'lgan xonalarning pollari yonmaydigan materiallardan yasalgan bo'lishi kerak.

5.9 Ishlab chiqarish binolari, xonalari va ularning alohida qismlari biologik ta'siri bo'yicha kamida 0,5% yetarli darajadagi tabiiy yorug'lik bilan ta'minlanishi lozim.

5.10 Tabiiy yoritilganlik me'yorini ta'minlash uchun yorug'lik tushadigan tirqishlarning oynali yuzasi QMQ 02.01.05-98 ning tabiiy yoritishni loyihalashga doir bobi talablarini, meteorologik sharoitlar me'yorlarini va ortiqcha insolyatsiyaning oldini olishni hisobga olgan holda ko'zda tutilishi lozim.

5.11 Yorug'lik tushadigan tirqishlar umumiy maydonining kamida 20 foizi, yilning sovuq davrida havo oqimi yuqoriga, issiq davrida esa pastga yo'naltirilishini hisobga olgan holda, xonani shamollatish uchun ochiladigan tavaqalarga yoki boshqa ochish moslamalariga ega bo'lishi kerak. Yilning issiq davrida pol sathidan ochiladigan tavaqalar ostigacha bo'lgan masofa kamida 4 metrni tashkil etishi lozim. Bunda poldan yoki ish maydonchalaridan oson boshqariladigan deraza va fonar romlarini ochish hamda yopish, shuningdek, ko'rsatilgan ishlarni qulay va xavfsiz bajarishni ta'minlaydigan tarzda oynalarni har ikki tomondan ta'mirlash va tozalash uchun moslamalar nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

5.12 Urug'larni zararsizlantirish uchun mo'ljallangan xonalar boshqa xonalardan ajratilgan (izolyatsiyalangan) bo'lishi kerak.

5.13 Urug'larni zararsizlantirish xonalari qo'lyuvgich va ko'zlarni yuvish uchun mo'ljallangan favvorachalar bilan jihozlanishi lozim.

5.14 Ishlab chiqarish xonalarining devorlari va shiftlari silliq, tekis, tozalash uchun qulay bo'lishi va och ranglarga bo'yalishi kerak.

Ekin urug'larini zararsizlantirish xonalarida devorlar poldan kamida 1,8 m balandlikkacha plitka bilan qoplanishi kerak.

5.15. Ishlab chiqarish va yordamchi xonalardagi pollar suv o'tkazmaydigan, tekis va sirpanchiq bo'lmasligi kerak.

Urug'larni zararsizlantirish uchun mo'ljallangan xonalarda pollar oson yuviladigan, ishqorlar, kislotalar, issiq suv ta'siriga chidamli bo'lishi, shuningdek, suyuqlik oqib ketishi uchun nishablik va novlarga ega bo'lishi lozim.

5.16. Ishlab chiqarishni boshqarish pultrlari joylashgan xonalarda va piyodalar yo'laklarida pnevmatik transport tizimini o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

5.17. Sanoat korxonalarining yordamchi bino va xonalarini loyihalash

bo'yicha QMQ (SNIIP) bobining talablariga muvofiq, ishchilarning maxsus kiyimlarini yechmagan holda davriy dam olishlari uchun joylar nazarda tutilishi kerak. Shu maqsadda yetarlicha yoritilgan hamda yong'inga qarshi talablar, xavfsizlik texnikasi qoidalari va gigiyena me'yorlariga rioya qilingan hollar, vestibyullar va boshqa xonalardan foydalanish mumkin.

5.18. Ishlab chiqarish xonalarini sanitariya jihatidan saqlash "Ishlab chiqarish korxonalarining xonalari va uskunalari sanitariya jihatidan saqlash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

5.19. Changni siqilgan havo yordamida uchirib tozalash taqiqlanadi.

5.20. Ishlab chiqarish xonalarini yig'ishtirish markazlashtirilgan vakuum uskunolari, sanoat changyutgichlari yordamida yoki nam usulda amalga oshirilishi kerak.

6. Ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalariga qo'yiladigan talablar

6.1 Ishlab chiqarish jarayonlari va uskunalariga qo'yiladigan talablar "Texnologik jarayonlarni tashkil etishning sanitariya qoidalari va ishlab chiqarish uskunalariga qo'yiladigan gigiyenik talablar" nomli 1042-73-sonli, "Sanoat korxonalarini loyihalashning sanitariya me'yorlari" nomli SN 325-71-sonli hujjatlarga hamda mehnat xavfsizligi tizimining davlat va tarmoq standartlariga muvofiq bo'lishi lozim.

6.2 Urug'larni dorilash uchun mo'ljallangan yangi texnologik jarayonlar va yangi kimyoviy moddalar ishlab chiqarishga joriy etilishidan oldin gigiyenik bahodan o'tkazilishi kerak. Ish hududi havosida tasdiqlangan ruxsat etilgan me'yoriy konsentratsiyaga (REMK) ega bo'lmagan moddalarni qo'llash taqiqlanadi.

6.3 Paxta zavodlari va tayyorlov punktlarining barcha texnologik jarayonlarida ishchilarni xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari ta'siridan himoya qilish chora-tadbirlari ko'zda tutilishi shart.

Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining manbalari hisoblangan kasblar, operatsiyalar va uskunarlar ro'yxati 1-ilovada keltirilgan.

6.4 Uskunalarining joylashuvi texnologik jarayonning uzluksizligini ta'minlashi lozim. Uskunalarini joylashtirishda ishchilarni zudlik bilan evakuatsiya qilish uchun yetarli o'tish yo'laklari bilan ta'minlanishi kerak.

6.5 Paxta xomashyosini quritish, tozalash, jinlash, chigitni linterlash, tolali chiqindilarni qayta ishlash, tola va lintni toyga joylash bilan bog'liq yuk ortish-tushirish, tashish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilgan bo'lishi kerak.

6.6 Ishlab chiqarish jarayoniga ish hududidagi zararli moddalar miqdorining oshishiga yoki atmosferaga chiqariladigan chiqindilarning ko'payishiga olib kelishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar kiritilganda, zararli moddalarning belgilangan

ruxsat etilgan me'yorlariga rioya etilishini kafolatlaydigan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'zda tutilishi lozim.

6.7 Chang, bug' va gazlarning hosil bo'lishi va ajralib chiqishi bilan kechadigan jarayonlar, 0046-95-sonli SanQvaMga muvofiq havo muhiti parametrlarini ta'minlovchi, zararli moddalar hosil bo'ladigan uchastka va joylarni germetiklash hamda aspiratsiya qilish vositalari bilan ta'minlanishi shart.

6.8 Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish GOST 12.1.019-79 va GOST 12.1.030-81 ga binoan xodimlarni elektr toki ta'siridan himoya qilishni ta'minlaydigan texnik vositalar va tashkiliy chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

6.9 Havo o'tkazgichlar va pnevmotizimlarda, quritgichlarda, texnologik mashinalarda yong'in chiqishi, gaz sizib chiqishi, bosim ostida ishlaydigan quvurlarda havo bosimining ruxsat etilgan darajasidan oshib ketishi kabi avariya holatlari yuzaga kelganda ishlab chiqarish jarayoni to'xtatilishi lozim.

Jarayon faqat avariya holati va uni keltirib chiqargan sabablar bartaraf etilgandan so'ng qayta tiklanishi mumkin.

6.10 Paxta xomashyosini tayyorlash, jamlash va saqlash "Paxta xomashyosini yig'ishtirish va tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

6.11 Avtomashinalar va tirkamalardan foydalanish avtomobil transporti korxonalari uchun xavfsizlik texnikasi qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.12 Paxta xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari bilan bog'liq yuk ortish-tushirish ishlari mexanizatsiyalashtirilishi lozim.

6.13 Paxta xomashyosini avtotransport vositalari kuzovlariga yuklashda ishchilarning bevosita transportyordan tushayotgan paxta massasi ostida qolish ehtimolini bartaraf etadigan usul qo'llanilishi shart.

6.14 G'aramlarni buzish, paxta xomashyosini avtotransport vositalariga yuklash va pnevmotransport quvurlariga uzatish ishlari tegishli g'arambuzgich va ta'minlagich-buzgich yordamida amalga oshirilishi kerak.

6.15 Quritgichning ichki qismidagi ishlar kuchlanishi 12 V bo'lgan ko'chma chiroq yorug'ligida bajarilishi lozim.

6.16 Zararsizlantirish jarayoni "Qishloq xo'jaligida pestitsidlarni (zaharli kimyoviy moddalarni) saqlash, tashish va qo'llash bo'yicha" SanQvaM 0150-04-sonli sanitariya qoidalariga muvofiq bajarilishi shart.

6.17 Chigitni zararsizlantirish jarayoni ishchilarning zaharli preparatlar va ishlov berilgan chigitlar bilan aloqa qilishiga yo'l qo'ymaydigan tarzda tashkil etilishi kerak.

6.18 Zararsizlantirilgan chigit solingan qog'oz qoplarni qadoqlash va tikish, ularni saqlash joyiga tashish, zaharli kimyoviy moddalar solingan idishlarni qadoqdan chiqarish qurilmasi yoki dozatorga ko'tarish ishlari

mexanizatsiyalashtirilishi lozim.

7. Xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlarni saqlash hamda tashish shartlariga qo'yiladigan talablar

7.1 Xomashyo, tayyor mahsulot, yoqilg'i va ishlab chiqarish chiqindilari bu maqsad uchun maxsus ajratilgan hamda jihozlangan omborxona va yuk ortish-tushirish maydonchalarida saqlanishi kerak.

7.2 Paxta xomashyosi ochiq maydonchalarda – g'aramlar shaklida va yopiq saqlash joylarida (omborlar va bostirmalarda) saqlanishi kerak. Sutkaning qorong'i vaqtida g'aram maydonchalari maxsus machtalarga o'rnatilgan projektorlar bilan yoritilishi lozim.

7.3 Materiallarni tashish uchun ishlatiladigan sex transporti vositalari "To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining sex transporti qurilmasi va uni ishlatishga doir yagona xavfsizlik talablari"ga muvofiq bo'lishi shart.

7.4 Urug'larni zararsizlantirish uchun mo'ljallangan zaharli kimyoviy moddalar maxsus omborda idishlarga joylangan holda saqlanishi va ombordan faqat idishda hamda kunlik sarf me'yoriga muvofiq miqdorda berilishi kerak.

7.5 O'tish va yurish yo'laklarining o'lchamlari saqlanadigan materiallarning gabaritlariga, ularni tashish va taxlash usullariga qarab belgilanishi lozim.

7.6 Yuklash maydonchalaridagi bostirmalar ostida paxta tolasi va tolali chiqindilarning toylarini taxlash mexanizatsiyalashtirilishi kerak.

7.7 Zaharli kimyoviy moddalarni saqlashda ularga suv va to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushish ehtimoli istisno qilinishi kerak.

7.8 Kimyoviy materiallarni saqlashda ularni guruhlari va kimyoviy xususiyatlari bo'yicha joylashtirish tartibiga rioya qilinishi lozim. Zavod nomlari yozilgan yorliqlar saqlab qolinishi shart.

7.9 Har bir kimyoviy preparat va material muayyan kimyoviy moddaning xossalriga mos keladigan maxsus idishda saqlanishi kerak.

Korxonaga idishsiz (uyum holidagi) kelib tushadigan zaharli kimyoviy moddalar og'zi zich yopiladigan omborcha, quti va bunkerlarda saqlanishi kerak, ularda kimyoviy moddalarning nomi ko'rsatilgan yozuv bo'lishi lozim.

7.10. Urug'larni dorilash sexiga zaharli kimyoviy moddalar faqat butun va shikastlanmagan o'ramda (qadoqda) keltirilishi kerak. Shikastlangan o'ramdagi zaharli kimyoviy moddalar omborga yuklash vaqtida butun qog'oz qoplarga solinib, og'zi bog'lanishi yoki tikilishi lozim.

7.11. Ekin materiallari va zaharli kimyoviy moddalar bilan bog'liq transport hamda yuklash-tushirish ishlari mexanizatsiya vositalari yordamida va GOST 12.2.009-76 "Yuklash-tushirish ishlari. Umumiy xavfsizlik talablari"ga muvofiq

amalga oshirilishi kerak.

7.12. Pestitsidlarni tashish yakunlangach, mashinalar va boshqa transport vositalari SanQvaM 0150-04-sonli talablariga muvofiq yaxshilab yuvilishi, tozalanishi va zararsizlantirilishi kerak.

8. Isitish, ventilyatsiya va havoni mo'tadillash tizimlariga qo'yiladigan talablar

8.1. Paxta tozalash zavodlarining ishlab chiqarish binolarida isitish va ventilyatsiya tizimlarini loyihalashda QMQ 02.04.05-97 "Isitish, ventilyatsiya va havoni mo'tadillash", SHN 245-71 "Loyihalash me'yorlari" hamda mazkur qoidalariga amal qilish kerak.

8.2. Isitish va ventilyatsiya tizimlari texnologik tadbirlar hamda binolarning hajmiy-rejaviy yechimlari bilan birgalikda barcha ish joylarida GOST 12.1.005-76 va SanQvaM 0046-95-sonli talablariga muvofiq meteorologik sharoitlarni hamda ish hududi havosidagi zararli moddalar konsentratsiyasini ta'minlashi shart.

8.3 Havo muhitining talab etiladigan parametrlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan havo miqdorini texnologik uskunalar, pnevmotransport va aspiratsiya tizimlari iste'mol qiladigan havo hajmini hisobga olgan holda, shuningdek, chang va issiqlikning xonalar balandligi bo'yicha hamda ish zonasida taqsimlanishini inobatga olib, changning yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyasini 2-4 mg/m³ (SanQvaM № 0046-95) darajasida ta'minlash shartidan kelib chiqib aniqlash lozim.

8.4 Ventilyatsiya tizimlari orqali chiqarilayotgan havo atmosferaga chiqarib yuborilayotganda va changning tarqalishi hisob-kitob qilinayotganda uning konsentratsiyasi aholi punktlari atmosfera havosida bir martalik yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiya — 0,5 mg/m³ dan (SanQvaM № 0148-04) oshmasligi nazarda tutilishi kerak.

8.5 Ventilyatsiya tizimining havo olish teshiklari va tabiiy oqimli ventilyatsiya uchun mo'ljallangan tirqishlar orqali bino ichiga kiradigan havoda chang miqdori yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyaning 30 foizidan oshmasligi lozim (tarkibida SiO₂ 10% dan ortiq bo'lgan paxta changi uchun 2 mg/m³).

8.6 Paxta tozalash sanoati korxonalarida chang va kimyoviy moddalarga qarshi kurashishning asosiy usuli mahalliy so'rma ventilyatsiya bo'lishi kerak. Har bir holatda uning turi va konstruksiyasini tanlash qo'llaniladigan texnologik uskunaga bog'liq bo'ladi: so'ruvchi g'ilof, so'ruvchi shkaf va hokazo shaklida. Changga qarshi kurashish uchun kesimdagi harakat tezligi 3-4 m/s, kimyoviy moddalarga qarshi kurashish uchun esa – 1 m/s bo'lishi kerak.

8.7 Mahalliy so'rma ventilyatsiyaning ishlashi texnologik uskunaning ishga tushirish mexanizmlari bilan bloklangan bo'lishi shart.

8.8 Mahalliy so'rg'ichlar yordamida chiqariladigan changli havo atmosferaga chiqarib yuborilishidan oldin, aholi yashash joylari atmosfera havosidagi paxta changining o'rtacha sutkalik yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyasi $0,15 \text{ mg/m}^3$ (SanQvaM № 048-04) ekanligini hisobga olgan holda, shuningdek, ishlab chiqarish hududining tashqi havosidagi chang miqdori ish joyi havosi uchun belgilangan yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyaning 30 foizidan oshmasligi sharti bilan tozalanishi lozim.

8.9 Ishlab chiqarish xonalarining hajmi bir ishchiga 20 m^3 dan kam to'g'ri keladigan, ishlab turgan paxta tozalash zavodlarida ventilyatsiyani loyihalashda har bir ishchiga soatiga kamida 30 m^3 tashqi havo berilishi, xona hajmi har bir ishchiga 20 m^3 dan ortiq to'g'ri keladigan hollarda esa har bir ishchiga soatiga kamida 20 m^3 tashqi havo berilishi ko'zda tutilishi kerak.

8.10 Havo haydash tizimlari uchun tashqi havo asosiy ishlab chiqarish sexlariga nisbatan shamol esadigan tomondan, yer sathidan kamida 2 m balandlikdan olinishi lozim.

8.11 Jin-linter va presslash sexlarida qulay meteorologik sharoitlar yaratish maqsadida isitish tizimi havo bilan ishlaydigan, havo haydash ventilyatsiyasi bilan birgalikda qo'llaniladigan bo'lishi kerak.

8.12 Ventilyatsiya bilan birga qo'llaniladigan havoli isitish tizimida, agar havodagi chang miqdori yo'l qo'yiladigan eng yuqori konsentratsiyadan oshmasa, samarali chang tutish uskunalari mavjud bo'lsa, shuningdek, xonaga berilayotgan havodagi chang konsentratsiyasi ish joyi havosi uchun belgilangan YQEKning 30 foizidan oshmasa, bitta xona doirasida retsirkulyatsiyadan foydalanishga ruxsat etiladi.

8.13. Ishlab chiqarish muhiti havosining mikroblar bilan ifloslanishi darajasi yuqori bo'lganda (asosiy sexlarda) ventilyatsiya va havo bilan isitish tizimlarida havoning retsirkulyatsiyasiga yo'l qo'yilmaydi.

8.14. Paxta tozalash zavodlarining yordamchi sexlarini isitish uchun qo'shimcha ishlab chiqarish zararini keltirib chiqarmaydigan tizimlar, jihozlar va issiqlik tashuvchilar nazarda tutilishi kerak.

8.15. Isitish jihozlarini oson tozalash imkonini beradigan silliq yuzali qilib loyihalash zarur.

8.16. Ventilyatsiya tizimlaridan foydalanishni nazorat qilish "Ishlab chiqarish xonalarining ventilyatsiya tizimlarini sanitariya-gigiyenik nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma" talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

8.17. Paxta tozalash zavodlarida tizimlardan foydalanish, ularni davriy tekshirish, rekonstruksiya qilish va rejali-ogohlantiruvchi ta'mirlash bilan shug'ullanadigan ventilyatsiya xizmati tashkil etilishi kerak. Xodimlar tarkibi va shtati amaldagi me'yorlarga muvofiq belgilanadi.

9. Changsizlantirish tadbirlariga oid talablar

9.1. Paxta tozalash zavodlarining chang chiqaradigan barcha mashina va mexanizmlari mahalliy havo so'rgich (aspiratsiya) bilan jihozlanishi shart.

9.2. Quvurlarning gorizontal qismidagi shiberlar yuqoriga ochiladigan qilib joylashtirilishi kerak.

9.3. Aspiratsiya tizimlarini o'rnatishda, imkon qadar, havo quvurlarining tarmoqlanib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

9.4. So'rib olinayotgan changning ishonchli tashilishi havo tezligi tozalash sexlari uchun 20 m/s va paxta tozalash zavodining qolgan barcha sexlari uchun kamida 18 m/s bo'lganda ta'minlanadi.

9.5. Aspiratsiya tizimlari orqali texnologik uskunalardan chiqariladigan havo miqdori changning ishlab chiqarish xonalariga ajralib chiqishini to'liq bartaraf etishni ta'minlashi va amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq belgilanishi lozim.

9.6 Ventilyatsiya tizimlarining chang tutqichlari tutib qolingan chang, chiqindi va boshqa zararli moddalarni uzluksiz ravishda chiqarib tashlash hamda ularni konteynerlar, chiqindi bunkerlari va avtotransport vositalarining tirkamalariga uzatish uchun mo'ljallangan qurilmalar bilan jihozlanishi kerak.

9.7 Chiqindilarni yig'ish uchun mo'ljallangan bunkerlar germetik bo'lib, changning tashqariga chiqishiga yo'l qo'ymasligi shart.

10. Ish o'rinlarida shovqin va tebranish xavfsizligiga qo'yiladigan talablar

10.1 Yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan paxta tozalash sanoati korxonalarini, ularning alohida bino va inshootlarini loyihalashda GOST 12.1.003-83 "Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Shovqin. Umumiy xavfsizlik talablari" talablariga muvofiq umumiy (ekvivalent) tovush darajasi bo'yicha ham, oktavali tovush bosimi darajalari bo'yicha ham shovqindan himoya qilish tadbirlari ko'zda tutilishi kerak.

10.2 Ovozdan himoya qilish tadbirlari QMQ 2.01.08-95 "Shovqindan himoya" talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

10.3 Shovqinli uskunarlar o'rnatiladigan korxona qurilishi uchun maydon aholi punktining loyihaviy yoki mavjud rejasini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Shovqinli sexlar sokin ishlab chiqarish uchastkalaridan uzoqda, bir yoki ikkita joyda jamlanishi, korxona shahar chegarasida joylashgan taqdirda esa, ular zavod hududining ichkarisida joylashtirilishi lozim.

10.4 GOST 12.1.003-83 me'yorlarini bajarish texnik jihatdan imkonsiz

bo'lgan ishlab chiqarish uchastkalari va ishchi zonalarida ishchilar eshitish a'zolarini shaxsiy himoya qilish vositalari bilan ta'minlanishi yoki xonalarda ovoz o'tkazmaydigan kuzatuv kabinalari o'rnatilishi shart.

10.5 Ishlab chiqarish shovqini darajasi me'yordan yuqori bo'lgan barcha ishlab chiqarish uchastkalari va sexlari GOST 12.4.026-76 bo'yicha ogohlantiruvchi belgiga ega bo'lishi kerak.

10.6 Yangi texnologik uskunalarni o'rnatishda va mavjudlarini mukammal ta'mirlashda me'yoriy-texnik hujjatlarda ko'rsatilgan nazorat nuqtalarida shovqin darajasi o'lchab ko'rilishi lozim. O'lchangan darajalar texnik pasport ma'lumotlariga mos kelishi kerak.

10.7 Yangi sexlar va zavodlar qurishda hamda mavjudlarini rekonstruksiya qilishda, texnologik jarayon imkon beradigan hollarda, shovqinli uskunalarni ishlab chiqarish binosidan tashqariga chiqarish, akustik ekranlar, ovoz yutuvchi va ovoz o'tkazmaydigan konstruksiyalarni qo'llash kerak.

10.8 Shovqin va tebranish darajasini o'lchash paxta tozalash sanoatining yangi korxonalarini ishga tushirishda o'tkaziladi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shovqin va tebranish darajasi ish o'rinlarida yiliga kamida bir marta, shuningdek, alohida qismlar, mexanizmlar va agregatlarni ta'mirlash, almashtirish va modernizatsiya qilishdan so'ng o'lchanishi kerak. Shovqin va tebranishni o'lchash mashinalarning ish rejimida o'tkazilishi zarur. O'lchov natijalari korxonaning sanitariya pasportiga kiritiladi.

10.9 Ish o'rinlarida yo'l qo'yiladigan shovqin darajalarini aniqlashda o'lchash ishlari GOST 12.1.059-86 "Ish o'rinlarida shovqin darajalarini o'lchash usullari"ga muvofiq amalga oshirilishi va SanQvaM 0120-01-sonli "Ish o'rinlarida shovqinning yo'l qo'yiladigan darajalari sanitariya me'yorlari" talablari bilan taqqoslanishi kerak.

10.10 Shovqin hosil qiluvchi mashinalarning pasportlarida ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o'lchangan shovqin xususiyatlari ko'rsatilishi shart. Amalda ishlayotgan mashinalarning shovqin darajasini tekshirish GOST 12.1.23-80 "Shovqin. Statsionar mashinalarning shovqin xususiyatlarini belgilash usuli"ga muvofiq o'tkazilishi lozim.

10.11 Ish o'rinlarida mexanizmlar va statsionar mashinalar tomonidan hosil qilinadigan tebranish darajalari GOST 12.1.012-78 "Tebranish. Umumiy xavfsizlik talablari" hamda SanQvaM 0122-01-sonli me'yorlarda belgilangan eng yuqori yo'l qo'yiladigan qiymatlardan oshmasligi kerak.

10.12 Paxta tozalash zavodlarining ish hududlaridagi umumiy texnologik tebranish chastotalarning oktava polasalaridagi tebranish tezligi darajalari bo'yicha SSBT GOST 12.1.012-78 standarti talablariga mos kelishi lozim.

10.13 Yangi uskunani montaj qilishda va mavjud uskunani mukammal

ta'mirlashdan so'ng uning poydevoridagi tebranish darajasi texnik pasport ma'lumotlariga muvofiqligi yuzasidan nazorat qilinishi kerak.

10.14 Faoliyat yuritayotgan korxonalarda shovqin va vibratsiyaning noqulay ta'sirining o'z vaqtida oldini olish maqsadida, shuningdek, alohida uzellar, mexanizmlar va agregatlarni ta'mirlash, almashtirish va modernizatsiya qilishdan so'ng har yili ish o'rinlarida GOST 12.1.050-86 "MXSST. Ish o'rinlarida shovqinni o'lchash usullari"; GOST 12.1.28-80 "Shovqin. Shovqin manbalarining shovqin xususiyatlarini aniqlash"; GOST 12.1.042-84 "MXSST. Vibratsiya. Ish o'rinlarida o'lchash usullari"; GOST 12.1.034-81 "Vibratsiya. O'lchovlarni o'tkazishga doir umumiy talablar"; GOST 12.1.043-84 "MXSST. Vibratsiya. Ishlab chiqarish binolaridagi ish o'rinlarida o'lchash usullari"ga muvofiq shovqin va vibratsiya ko'rsatkichlari o'lchab boriladi. O'lchov natijalari korxonaning sanitariya pasportlariga kiritiladi. TOST 12.1.043-84. "SSBT. Tebranish. Ishlab chiqarish binolaridagi ish joylarida o'lchash usullari."

10.15 Shovqinni o'lchash uchun mo'ljallangan apparatura GOST 17187-81 ga mos kelishi, GOST 17168-82 bo'yicha polosa filtrlarga ega bo'lishi, vibratsiyani o'lchashda esa GOST 12.4.012-83 talablariga javob berishi hamda "O'zstandart" agentligi idoralarining Davlat qiyoslovidan o'tkazilganligi to'g'risidagi amaldagi guvohnomalariga ega bo'lishi kerak.

10.16 Ish o'rinlarining akustik va vibratsiya xususiyatlari SanQvaM № 0120-01, SanQvaM № 0122-01, GOST 1770-86 "Qo'l mashinalari. Vibratsiya xususiyatlariga qo'yiladigan talablar", shuningdek, ishlovchilarning qo'llariga uzatiladigan lokal vibratsiya hosil qiluvchi mashina va uskunalar bilan ishlashda № 3041-84 QMQda belgilangan yo'l qo'yiladigan darajalarga muvofiqligi yuzasidan gigiyenik baholanadi.

10.17 Tovush darajasi 80 dBA dan yuqori bo'lgan sex zonolari "SHQMS. Shovqindan himoya qilish vositalari va usullari" GOST 12.1.029-80 ga muvofiq individual va jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

11. Yoritishga qo'yiladigan talablar

11.1 Paxta tozalash zavodlarining tabiiy va sun'iy yoritilishini loyihalashda QMQ 2.01.05-98 "Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalash me'yorlari"ga amal qilish lozim.

11.2 Paxta tozalash zavodlari sexlari binolarining yorug'lik tushadigan tirqishlari "O'zbekiston SSRda fuqarolik va sanoat qurilishi uchun quyoshdan himoyalovchi qurilmalarni loyihalash bo'yicha yo'riqnoma", RSN-22-81 talablariga muvofiq quyoshdan himoyalovchi qurilmalarga ega bo'lishi kerak.

11.3 Texnologik uskunalar orasidagi o'tish yo'laklari va xonalardan chiqish

joylari avariyaaviy hamda navbatchi yoritish tizimi bilan ta'minlanishi lozim.

11.4 Paxta tozalash zavodlarining asosiy sexlarida chang va suvdan himoyalangan gaz-razryadli lampalarni qo'llash zarur. Cho'g'lanma lampalardan faqat mahalliy va avariyaaviy yoritish manbalari sifatida, shuningdek gaz-razryadli lampalarni qo'llash imkoni bo'lmagan yoki texnik jihatdan nomaqbul bo'lgan hollarda foydalanish mumkin. Ishchi yuzalardagi eng kam yoritilganlik darajasini tanlash ko'rish ishlari xususiyatiga ko'ra (2-ilova) amalga oshirilishi kerak.

11.5 Ishlab chiqarish xonalaridagi yoritish tizimi umumiy yoki kombinatiyalashgan bo'lishi kerak (1-jadval).

11.6. Yorug'lik tushadigan darchalar oynalari yiliga kamida 4 marta tozalanishi va yuvilishi lozim. Chiroqlar va lampalar yiliga kamida 2 marta yuvish vositalari yordamida tozalanadi. Eskirgan va ishdan chiqqan lampalar zudlik bilan almashtirilishi shart.

11.7. Paxta zavodlari hududi hamda paxta xomashyosi, chigit, tayyor mahsulot va ishlab chiqarish chiqindilari bilan yuk ortish-tushirish ishlari bajariladigan joylar machtalarga o'rnatilgan proyektorlar yordamida yoritilishi kerak.

11.8. Paxta xomashyosi uchun mo'ljallangan yopiq omborlar kechasi kirish darvozalari oldiga o'rnatiladigan ko'chma proyektor uskunalari va proyektor ustunlari bilan yoritilishi kerak.

11.9. Ishchi yuzalardagi yoritilganlik darajasini nazorat qilish yiliga kamida bir marta, shuningdek, yoritish uskunasi ishga tushirilganda va u rekonstruksiya qilinganidan so'ng "Sanoat korxonalarida sun'iy yoritish ustidan profilaktik va joriy sanitariya nazoratini o'tkazish bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan uslubiy ko'rsatmalar"ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

Paxtani qayta ishlash sanoati korxonalari uchun yoritish tizimlari

Ishlab chiqarish binolari va uskunalarning nomlanishi	Tavsiya etiladigan yoritish tizimi
I. Quritish-tozalash va tozalash sexlari. Paxta xomashyosi uchun yopiq omborlar	Xonadan tashqarida joylashtirilgan, umumiy va lokalizatsiya qilingan hamda paxta xomashyosi bilan ishlash joylarini eshik tirqishlari orqali yoritadigan ko'chma chiroqlar
Pnevmotransport uskunalari va yuklash konveyerlari (ochiq havoda)	Umumiy yoritish hamda ulanish ustunlaridan quvvatlanadigan ko'chma chiroqlar
Siklon qurilmalari	Umumiy, lokallashtirilgan hamda ko'chma chiroq
Tozalash mashinalari	Umumiy, lokallashtirilgan hamda ko'chma chiroq. Chiroqlar tozalagichlarga xizmat ko'rsatish zonasida 3 m balandlikda, xomashyo va taqsimlash shneklarga xizmat ko'rsatish zonasida esa 5-7 m balandlikda joylashtiriladi.
II. Jin-linter sexi Arrali va valikli jinlar hamda linterlar guruhi	Chiroqlarning bir tekis va lokallashtirilgan joylashuviga ega umumiy yoritish hamda ko'chma chiroqlar. Bir tekis umumiy yoritish chiroqlari guruhlar orasidagi yo'laklarda poldan 4,5-6 m balandlikda joylashtiriladi.
	Lokallashtirilgan umumiy yoritish chiroqlari kameralar tarafidan shneklarga xizmat ko'rsatish maydonchalari darajasida, tola tozalagichlar tarafidan esa maydonchalardan 2-2,5 m balandlikda o'rnatiladi.
III. Chiqindilarni qayta ishlash sexi	Umumiy lokallashtirilgan yoritish
IV. Chigitni qayta ishlash sexi	Umumiy lokallashtirilgan yoritish
V. Arra ta'mirlash sexi	Kombinatsiyalashgan – umumiy, lokallashtirilgan hamda mahalliy yoritish
VI. Texnologik va urug'chilik laboratoriyasi	Bir tekis umumiy yoritish hamda ko'chma chiroqlar
VII. Xomashyo omborlari va yuk ortish-tushirish maydonchalari Avtomobil va vagon tarozilari uchun ayvonlar va maydonchalar. Chigit uchun yopiq omborlar. Chigitni tashish va omborga yuklash maydonchalari (ochiq osmon ostida) hamda paxta xomashyosini g'aramlash maydonchalari	Bir tekis umumiy yoritish Umumiy lokallashtirilgan yoritish Umumiy yoritish hamda ulanish ustunlaridan quvvatlanadigan ko'chma chiroqlar
Chigit uchun yopiq omborlar	Umumiy lokallashtirilgan yoritish
Chigitni tashish va omborga (ochiq osmon ostiga) yuklash maydonchalari hamda paxta xomashyosini g'aramlash maydonchalari	Umumiy yoritish hamda ulanish kolonkasidan quvvat oladigan ko'chma chiroqlar

12. Ta'mirlash ishlarini tashkil etish va bajarishga doir talablar

12.1. Bosh mexanik yoki bosh energetikning taqdimnomasiga asosan, korxona bo'yicha chiqarilgan farmoyish bilan ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun mas'ul shaxs tayinlanadi.

12.2. Paxta tozalash uskunalarini ta'mirlash ishlariga xavfsiz mehnat usullariga o'rgatilgan, xavfsizlik texnikasi bo'yicha imtihondan o'tgan va ruxsat beruvchi guvohnomaga ega bo'lgan ta'mirchi ishchilar qo'yiladi.

12.3. Qo'lda ishlatiladigan elektr asboblari va ko'chma elektr chiroqlar bilan ishlashga xavfsiz mehnat usullariga o'rgatilgan hamda "Iste'molchilarning elektr qurilmalaridan texnik foydalanish qoidalari" va "Iste'molchilarning elektr qurilmalaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari" talablariga muvofiq malaka guruhiga ega shaxslarga ruxsat etiladi.

12.4. Paxta tozalash uskunalarini ta'mirlovchi ishchilar ish uchun zarur bo'lgan qurilmalar, moslamalar va asboblari bilan ta'minlanishi kerak.

12.5. Ko'chma mexanizmlarni 1 metrdan yuqori balandlikda ta'mirlash uchun mustahkam havoza va taxtasupalar o'rnatilishi lozim. Ular yig'ma metallardan yoki yog'ochdan yasaliishi mumkin.

12.6. Ta'mirlashda foydalaniladigan doimiy maydonchalar g'adir-budur temirdan yasalgan to'shamaga, pastki qismi bo'ylab balandligi kamida 150 mm bo'lgan yaxlit hoshiyaga va balandligi kamida 1 m bo'lgan panjaraga ega bo'lishi kerak.

12.7 Ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan qo'l elektr asboblari GOST 12.2.013-75 (ST SEV 789-77) "Qo'l va elektr mashinalari" hamda iste'molchilarning elektr qurilmalaridan foydalanishda TEXF (PTE) va TXQ (PTB) (BSh-8-bob) talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

12.8 Dasta o'rnatish uchun mo'ljallangan o'tkir uchli asboblari (egovlar, shaberlar va h.k.) asbob o'lchamiga mos keladigan tutqich va bandaj halqalariga ega bo'lishi lozim.

12.9 Zarbali asboblari (zubilolar, kreysmeysellar, baradoklar, kernerlar va h.k.) yoriqlarsiz, qatlamlanmagan va o'tkir qirralarsiz bo'lishi kerak. Ular bilan ishlashda ishchi himoya ko'zoynagini taqishi shart.

12.10 Jilvirlash (charxlash) dastgohi to'siqqa va himoya ekraniga ega bo'lishi lozim. Himoya ekрани mavjud bo'lmagan hollarda, ishchi himoya ko'zoynagini taqib ishlashi kerak.

12.11 Har bir ta'mirchi ish vaqtida uning harakatlariga xalal bermaydigan ish o'rnini bilan ta'minlanishi kerak.

12.12 Metallni chopish, parchinlash, ko'chma abraziv asbob bilan ishlash va metall hamda boshqa qattiq zarrachalar sachrashi mumkin bo'lgan boshqa amallar

sinmaydigan oynali ko'zoynakda va o'rnatilgan ko'chma to'siq qalqon bilan bajarilishi lozim.

12.13. Xavflilik darajasi yuqori bo'lgan ta'mirlash ishlari (gidropress qurilmalarida, paxta, chigit, tola, tolali iflosliklar to'planadigan joylarda) "Payvandlash va boshqa olovli ishlarni bajarishda yong'in xavfsizligi qoidalari" hamda "Portlash va yongin jihatidan portlash xavfi mavjud obyektlarda olovli ishlarni xavfsiz o'tkazishni tashkil etish bo'yicha namunaviy yo'riqnoma"ga qat'iy muvofiq bajarilishi lozim.

12.14. Gidropress qurilmasini, tozalash va jin-linter uskunalarini ta'mirlash ishlarini ta'minlash uchun ta'mirlash hududlari tegishli yuk ko'tarish quvvatiga ega bo'lgan yuk ko'taruvchi mashina va mexanizmlar bilan ta'minlanishi kerak.

12.15. Ta'mirlashdan avval uskuna shunday holatga keltirilishi kerakki, unda uskunani ishga tushirish ehtimoli butunlay istisno etilsin.

